

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti

Moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası assistenti

e-mail: dilmurod.teshabayev@fstu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonining zamonaviy tendensiyalari va ularning iqtisodiy boshqaruvga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn va bulutli platformalarning hisobot tizimiga integratsiyasi tahlil qilindi. Natijada moliyaviy axborotlarning tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshirish bilan birga, standartlashuv muammolari, axborot tizimlari o'rtasidagi nomuvofiqlik hamda mutaxassislar malakasi bilan bog'liq kamchiliklar aniqlangan. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, moliyaviy hisobot, raqamlashtirish, buxgalteriya tizimi, blokcheyn, sun'iy intellekt, axborot tizimlari, shaffoflik.

Аннотация. В данной статье исследуются современные тенденции формирования финансовой отчетности в условиях цифровой экономики и их влияние на экономическое управление. В ходе исследования проанализирована интеграция цифровых технологий, в частности искусственного интеллекта, блокчейна и облачных платформ, в систему отчетности. В результате выявлено, что наряду с повышением оперативности, точности и прозрачности финансовой информации существуют проблемы стандартизации, несоответствия между информационными системами, а также недостаточный уровень квалификации специалистов. Для устранения данных проблем разработаны практические рекомендации на основе системного подхода.

Ключевые слова: цифровая экономика, финансовая отчетность, цифровизация, бухгалтерская система, блокчейн, искусственный интеллект, информационные системы, прозрачность.

Annotation. This article examines modern trends in the formation of financial reporting in the context of the digital economy and their impact on economic management. The study analyzes the integration of digital technologies, particularly artificial intelligence, blockchain, and cloud platforms, into reporting systems. The findings indicate that while the speed, accuracy, and transparency of financial information are improving, there are still challenges related to standardization, incompatibility between information systems, and insufficient professional qualifications. Practical recommendations based on a systematic approach are proposed to address these issues.

Keywords: digital economy, financial reporting, digitalization, accounting system, blockchain, artificial intelligence, information systems, transparency.

KIRISH

Hozirgi davrda global iqtisodiyotda yuz berayotgan chuqur strukturaviy o'zgarishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda iqtisodiy jarayonlarning raqamli transformatsiyasi moliyaviy boshqaruv tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tizimini takomillashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash, moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, davlat boshqaruvi va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu yo'nalishda institutsional asoslarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-



tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan, moliyaviy hisob-kitob va hisobot tizimlarini raqamlashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlar an'anaviy shakllardan farqli ravishda tezkor, integratsiyalashgan va real vaqt rejimida shakllantirilishi talab etiladi. Bu esa buxgalteriya hisobi tizimini modernizatsiya qilishni, zamonaviy dasturiy mahsulotlar va axborot platformalaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunda moliyaviy hisobotlarni tuzishning umumiy prinsiplari, ularning ishonchliligi, to'liqligi va xolisligini ta'minlash talablari belgilab berilgan bo'lib, mazkur qonun raqamli transformatsiya jarayonida ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [2, 3].

Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy axborotlarga bo'lgan ehtiyojning keskin ortib borayotgani bilan izohlanadi. Korxonalar faoliyatining murakkablashuvi, biznes jarayonlarining diversifikatsiyalashuvi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi moliyaviy hisobotlarning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini talab qilmoqda. Shu bilan birga, investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun tezkor va ishonchli axborot taqdim etish zarurati ham ortib bormoqda.

Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy islohotlar konsepsiyasida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, davlat rahbari quyidagilarni ta'kidlaydi: "Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirish va shaffoflikni ta'minlash — bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir" [4]. Ushbu yondashuv moliyaviy hisobot tizimini ham raqamli asosda takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Shunday qilib, umumiy olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalasi bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali tashkil etilishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida iqtisodiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi moliyaviy axborotlarni shakllantirish, qayta ishlash va taqdim etish tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili moliyaviy hisobot tizimining yangi sharoitdagi muammolari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning alohida jihatlari o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Jabbarova Ch.A. o'z tadqiqotida majburiyatlar hisobi misolida raqamli iqtisodiyotning hisob tizimiga ta'sirini tahlil qilib, hisob obyektlarining iqtisodiy mazmuni va ularni aks ettirish usullarida sezilarli o'zgarishlar yuz berayotganini ta'kidlaydi. Muallifga ko'ra, raqamli muhitda majburiyatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari shakllanib, bu jarayon moliyaviy hisobotning ishonchliligi va aniqligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5]. Ushbu yondashuv moliyaviy hisobot elementlari ham raqamli transformatsiya natijasida yangicha talqin etilishini ko'rsatadi.

Azizova M.I. va Ishanxodjayeva D.E. tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotning asosiy komponentlari sifatida sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, blokcheyn, buyumlar interneti va elektron tijorat tizimlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Mualliflar ushbu texnologiyalar iqtisodiy boshqaruv tizimlariga chuqur kirib borishi natijasida moliyaviy axborotlarni shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmay qolayotganini asoslaydilar [6]. Bu esa moliyaviy hisobotni shakllantirishda texnologik omilning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

Maxmudov S.K. esa moliyaviy hisobotning mazmuni va shakliga e'tibor qaratib, uni foydalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtirish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, xalqaro tajribani bevosita qo'llash har doim ham milliy iqtisodiyot sharoitlariga mos kelavermaydi, chunki har bir mamlakatning hisob tizimi o'ziga xos institutsional va iqtisodiy xususiyatlarga ega [7]. Ushbu qarash milliy va xalqaro standartlar integratsiyasi muammosini ochib beradi.

Razzaqova D.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimining rivojlanish bosqichlari o'rganilib, ularning iqtisodiy qarorlar qabul qilishdagi muhim roli asoslab beriladi. Muallifning ta'kidlashicha, har qanday boshqaruv qarorlari aynan moliyaviy hisobot ma'lumotlariga asoslanadi, bu esa uning strategik ahamiyatini yanada oshiradi [8]. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot sifatini oshirish bevosita iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida ham ushbu muammo keng yoritilgan. Jumladan, Uzhva A., Belinska S. va Lazarieva O. raqamli iqtisodiyotda hisob va tahlilni ta'minot tizimini o'rganib, IT-texnologiyalarni joriy etish hisobotlarni real vaqt rejimida shakllantirish imkonini berishini ta'kidlaydilar [9]. Bu esa moliyaviy hisobotning tezkorligi va dolzarbligini sezilarli darajada oshiradi.

Rozhkova N.K. va Blinova U.Yu. esa moliyaviy hisobning konseptual muammolarini tahlil qilib, amaldagi hisob tizimi zamonaviy talablarni to'liq qondira olmayotganini qayd etadilar. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar (xususan, blokcheyn va sun'iy intellekt) hisob tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi [10]. Bu esa moliyaviy hisobotni shakllantirishda konseptual yondashuvlarni yangilash zaruratini bildiradi.

Druzhilovskaya T.Yu. va Druzhilovskaya E.S. tadqiqotlarida moliyaviy hisobotni raqamli formatda taqdim etish masalasi ko'rib chiqilib, XBRL kabi texnologiyalarni joriy etish hisobotlarning shaffofligi va tahliliy imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlanadi [11]. Mualliflar raqamli iqtisodiyot moliyaviy hisobotni tayyorlash, qayta ishlash va foydalanuvchilarga yetkazish jarayonlarini tubdan o'zgartirishini ilmiy asoslab beradilar.

Davydova O.A. esa buxgalteriya hisobi tizimida yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganib, raqamlashtirish jarayoni nafaqat texnologik, balki institutsional va kadrlar salohiyatiga oid muammolarni ham yuzaga keltirayotganini ta'kidlaydi. Xususan, yangi sharoitda buxgalter mutaxassislaridan raqamli kompetensiyalar talab etilishi muhim omil sifatida qayd etiladi [12].

Kamordzhanova N. va Selezneva A. tadqiqotlarida esa raqamli iqtisodiyot yangi hisob obyektlarining paydo bo'lishiga olib kelgani ta'kidlanadi. Mualliflar fikricha, raqamli aktivlar, blokcheyn tizimlari va boshqa innovatsion vositalar moliyaviy hisobot tarkibini kengaytirishni talab qiladi [13].

Kanu D.H. tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa raqamli valyutalar va kripto-aktivlar moliyaviy hisobot tizimi uchun yangi muammolarni yuzaga keltirayotgani qayd etiladi. Xususan, yagona standartlarning mavjud emasligi, audit jarayonlarining murakkablashuvi va huquqiy tartibga solishning yetarli emasligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi [14].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda transformatsiyalanmoqda:

- moliyaviy axborotlarni real vaqt rejimida shakllantirish va taqdim etish imkoniyatlari kengaymoqda;
- hisobot tarkibiga yangi obyektlar (raqamli aktivlar, kriptovalyutalar) kiritilmoqda;
- xalqaro va milliy standartlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish muammosi dolzarbligicha qolmoqda;
- moliyaviy hisobotning shaffofligi va interaktivligi oshib bormoqda;
- buxgalteriya hisobi sohasida yangi bilim va ko'nikmalar talab etilmoqda.

Shu bilan birga, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada shakllanmaganligi, metodologik yondashuvlarning eskirganligi va texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohadagi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur muammolarni hal etish kompleks yondashuvni, ya'ni texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan birga, institutsional va metodologik islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy jihatlarni kompleks o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari tizimli ravishda qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tanlanayotganda mavzuning ko'p qirrali va transformatsion xususiyati inobatga olinib, sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) yondashuvlar uyg'unlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha nafaqat texnologik yangilanishlar, balki metodologik va institutsional transformatsiyalar bilan ham chambarchas bog'liq. Zamonaviy iqtisodiy muhitda moliyaviy axborotning shakllanishi, qayta ishlanishi va taqdim etilishi jarayonlari keskin o'zgarib, ularning tezkorligi, aniqligi va moslashuvchanligiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn, bulutli hisoblash va katta ma'lumotlar (Big Data), moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayoni an'anaviy modeldan raqamli modelga o'tish bosqichida turibdi. Bu jarayonda asosiy muammo sifatida axborotlarning fragmentatsiyasi, turli tizimlar o'rtasida integratsiyaning yetarli emasligi hamda yagona standartlarning yetishmasligi namoyon bo'lmoqda [15, 16]. Shu bilan birga, real vaqt rejimida hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari paydo bo'layotgan bo'lsa-da, amaliyotda bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti.

Quyidagi jadvalda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning asosiy muammolari va ularning sabablari umumlashtirilgan.



1-jadval. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishdagi asosiy muammolar


Muammo turi	Tavsifi	Asosiy sabablar
Standartlashuv yetishmasligi	Yagona global va milliy standartlar to'liq moslashmagan	Raqamli aktivlar va yangi obyektlarning tez paydo bo'lishi
Axborot integratsiyasi pastligi	Turli axborot tizimlari o'zaro bog'lanmagan	Platformalar o'rtasida moslikning yo'qligi
Kadrlar kompetensiyasi	Buxgalterlarning IT bilimlari yetarli emas	Ta'lim tizimining sekin moslashuvi
Axborot xavfsizligi	Ma'lumotlarning himoyasi zaif	Kiberxavfsizlik tizimlarining yetarli emasligi
Real vaqt hisobotlari cheklangan	Operativ qaror qabul qilish uchun yetarli tezlik yo'q	Texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi

Mazkur muammolar moliyaviy hisobot tizimining samaradorligini pasaytirish bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan qaralganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish masalasi tizimli yondashuvni talab etadi. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, korxonalarda axborot oqimlarini boshqarishning samarali modeli hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu esa hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy hisobotlarning mazmuni ham o'zgarib bormoqda. Endilikda hisobotlar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni aks ettiradi, balki prognozlash, tahlil qilish va real vaqt monitoringini ham o'z ichiga olmoqda. Bu esa hisob tizimining analitik funksiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yangi iqtisodiy obyektlar — raqamli aktivlar, kriptovalyutalar, intellektual mulk kabi elementlarni hisobga olish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda [17, 18]. Bu borada yagona yondashuvning yo'qligi moliyaviy hisobotlarda tafovutlarga olib kelmoqda.

Quyidagi sxema raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonining zamonaviy modelini aks ettiradi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBTLARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONI



1- sxema. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish modeli

Mazkur modeldan ko'rinib turibdiki, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda inson omilining ulushi qisqarib, avtomatlashtirilgan tizimlarning roli ortib bormoqda. Bu esa xatoliklarni kamaytirish bilan birga, axborotlarning tezkorligini oshiradi. Shu bilan birga, tizimning to'liq ishlashi uchun yuqori darajadagi texnologik infratuzilma va malakali kadrlar talab etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda moliyaviy hisobotlarning sifati sezilarli darajada oshgan. Xususan, axborotning aniqligi, shaffofligi va foydalanuvchilar uchun qulayligi ortgan. Biroq, ushbu jarayonda yangi turdagi xavflar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan, kiberxavfsizlik tahdidlari, ma'lumotlarning yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi ehtimoli yuqori.

Quyidagi jadvalda raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarning afzalliklari va xavflari solishtirma

tarzda keltirilgan.

2-jadval. Raqamli moliyaviy hisobotlarning afzalliklari va xavflari

Afzalliklar	Xavflar
Real vaqt rejimida axborot olish	Kiberxavfsizlik tahdidlari
Xatoliklarning kamayishi	Texnik nosozliklar
Shaffoflikning oshishi	Standartlashuv muammolari
Analitik imkoniyatlarning kengayishi	Malakali kadrlar yetishmasligi
Integratsiyalashgan tizimlar	Ma'lumotlar ortiqchaligi

Muhokama natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishni takomillashtirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, xalqaro standartlarni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish zarur, chunki mavjud standartlar barcha raqamli operatsiyalarni to'liq qamrab olmayapti. Ikkinchidan, axborot tizimlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish va yagona platformalarni joriy etish talab etiladi. Uchinchidan, buxgalteriya va moliya sohasida ishlovchi mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini oshirish dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin. Ushbu texnologiya ma'lumotlarning o'zgarmasligini ta'minlab, audit jarayonini soddalashtiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tizimlar moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatik tahlil qilish va prognozlash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tizimi tubdan transformatsiyaga uchramoqda. Ushbu jarayon murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, u texnologik, metodologik va institutsional omillar bilan belgilanadi. Moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, ularning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash uchun zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatdi. Raqamlashtirish jarayonlari natijasida moliyaviy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va taqdim etish mexanizmlari sezilarli darajada takomillashtirishmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi hisobotlarning tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ushbu transformatsiya jarayoni qator tizimli va metodologik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud muammolar asosan uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, normativ-huquqiy bazaning raqamli iqtisodiyot talablariga to'liq moslashmaganligi; ikkinchidan, axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi; uchinchidan, soha mutaxassislarning raqamli kompetensiyalari darajasining nisbatan pastligi. Bundan tashqari, raqamli aktivlar va yangi iqtisodiy obyektlarni hisobga olish bo'yicha yagona metodologiyaning mavjud emasligi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarning sifat ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lib, bu ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi samaradorligini oshiradi. Biroq, bunday tizimlarni keng joriy etish uchun zarur infratuzilma va institutsional sharoitlar barcha subyektlarda bir xil darajada shakllanmagan.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Avvalo, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqish va uni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish zarur. Xususan, yangi turdagi iqtisodiy obyektlarni hisobga olish bo'yicha aniq standartlar ishlab chiqilishi lozim. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Bundan tashqari, korxonalar darajasida yagona axborot platformalarini joriy etish orqali ma'lumotlar integratsiyasini kuchaytirish zarur. Bu moliyaviy axborotlarning uzluksiz va tizimli shakllanishini ta'minlaydi. Kadrlar salohiyatini oshirish ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, buxgalteriya va moliya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning raqamli bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Shuningdek, moliyaviy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy kiberxavfsizlik mexanizmlarini joriy etish ham dolzarb vazifalardan biridir. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobot tizimini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi va bu jarayonni samarali tashkil etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4800657>
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahrir) O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>
4. Shavkat Mirziyoyev (2017–2026). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga oid nutqlari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
5. Jabbarova, Ch. A. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida majburiyatlar hisobini rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Science Problems*.
6. Azizova, M. I., & Ishanxodjayeva, D. E. (2023). Raqamli iqtisodiyotning muammo va istiqbollari. *Moliyaviy texnologiyalar jurnali*.
7. Maxmudov, S. K. (2025). Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning muammolari. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali*.
8. Razzaqova, D. A. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va hisoboti rivojlanish bosqichlari. *Raqamli iqtisodiyot jurnali*.
9. Uzhva, A., Belinska, S., & Lazarieva, O. (2022). Accounting and analytical support of enterprises in the digital economy. *Naukovyi Visnyk Natsionalnoho Hirnychoho Universytetu*.
10. Rozhkova, N. K., & Blinova, U. Yu. (2022). Conceptual problems of financial accounting in a digital economy. *Management in Economy: Problems and Prospects*.
11. Дружилловская, Т. Ю., & Дружилловская, Э. С. (2019). Модернизация финансовой отчетности организаций в условиях цифровой экономики. *Учет. Анализ. Аудит*, 6(1), 50–61.
12. Davydova, O. A. (2019). Problems and ways to improve accounting in the digital economy. *Economics and Management*.
13. Kamordzhanova, N., & Selezneva, A. (2021). The impact of the digital economy on accounting, reporting and audit.
14. Kanu, D. H. (2025). Digital currencies, financial reporting, and auditing: A new concern for accounting professionals. *International Journal of Economics, Business and Management Research*.
15. Выборнова, Е. А., & Котова, К. Ю. (2019). Этапы формирования управленческой отчетности в условиях цифровизации экономики. *Концепт*, (7), 123–130.
16. Kudbiev, D., Tursunova, D., & Qudbiyev, N. (2022). Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish masalalari. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 107–112.
17. Teshabayev, D. B. U. (2023). New models for analysing the financial statements of organisations. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(11), 833–839.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100